

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yilning yanvar-iyun oylarida Namangan viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 35 341,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2024- yilning yanvar-iyun oylari bilan taqqoslaganda 7,3 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2024- yilning yanvar-iyun oylari narxlariga nisbatan 110,2 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Namangan viloyatining qo'shgan hissasi 4,4 % ga yetdi.

2025- yilning yanvar-iyun oylarida Namangan viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



-  YAHM o'sish sur'ati
-  YAHM hajmi
-  YAHM deflyator indeksi
-  YAIMga qo'shgan hissasi



2025- yilning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2024- yil	2025- yil	
I. YAHM, jami	29 906,0	35 341,6	107,3
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	29 462,5	34 724,3	107,2
mahsulotlarga sof soliqlar	443,5	617,3	109,9
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	29 462,5	34 724,3	107,2
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	6 948,8	7 889,5	104,3
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	7 539,4	9 147,2	110,2
sanoat	5 306,3	6 420,0	109,1
qurilish	2 233,1	2 727,2	112,7
xizmatlar	14 974,3	17 687,6	107,1
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5 684,8	6 944,8	109,7
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 682,2	2 145,1	115,9
boshqa xizmat tarmoqlari	7 607,3	8 597,7	103,2

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 11 237,2 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 5,1 % ga yuqoridir.

2025- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



2025- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2024- yil	2025- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	98,5	98,3
mahsulotlarga sof soliqlar	1,5	1,7
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	23,6	22,7
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	25,6	26,4
sanoat	18,0	18,5
qurilish	7,6	7,9
xizmatlar	50,8	50,9
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	19,3	20,0
tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,7	6,2
boshqa xizmat tarmoqlari	25,8	24,7




2025- yilning yanvar-iyun oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 98,3 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 1,7 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 22,7 % ni, sanoat tarmog'i 18,5 % ni, qurilish 7,9 % ni va xizmatlar sohasi 50,9 % ni tashkil qildi.

Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlaribo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2024- yil



2025- yil




● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,0 f.p. (2024- yilning yanvar-iyunida – 0,9 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,6 f.p. (2024- yilning yanvar-iyunida – 1,5 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,9 f.p. (2024- yilning yanvar-iyunida – 0,4 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 3,6 f.p. (2024- yilda – 4,6 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2024- yilning yanvar-iyunida – 0,1 f.p.)ga ko'paydi.

2025- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2025- yilning yanvar-iyun oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 104,3 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 22,7 %), sanoatda – 109,1 % (18,5 %), qurilishda – 112,7 % (7,9 %), xizmatlar sohasida – 107,1 % ni (50,9 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 109,7 % (20,0 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 115,9 % (6,2 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,2 % dan (24,7 %) iborat bo'ldi.

Yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

2024- y.

2025- y.



7,5 %

YAHM

7,3 %



3,3 %

**Qishloq, o'rmon
va baliqchilik xo'jaligi**

4,3 %



9,8 %

Sanoat

9,1 %



6,9 %

Qurilish

12,7 %



9,4 %


Xizmatlar

7,1 %



2025- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM deflyatori indeksi 2024- yilning yanvar-iyun oylaridagi narxlarga nisbatan 110,2 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 110,9 % va xizmatlar sohasida – 110,3 % qayd etildi.

Yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2025-yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik 24 338,9 mlrd. so'mni tashkil etdi (2024- yilning yanvar-iyun oylarida – 20 671,9 mlrd. so'm). YAHMdagi ulushi 70,1 % ni (2024- yilning yanvar-iyun oylarida – 70,2 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

Yanvar-iyun oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

Hajmi, mlrd.so'm

Ulushi, % da

2024- yil

20 671,9

70,2 %

2025- yil

24 338,9

70,1 %

